



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shokirova Hilola Abduraxmon qizi

Innovatsion texnologiyalar universiteti,
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsenti

Annotatsiya: Respublikamizda so‘nggi yillarda talabalarni gender yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. Ijtimoiy-pedagogik muammoni o‘rganishda amalga oshirilayotgan islohotlar gender tengligi, ta‘lim tizimi va jamiyatda adolatli munosabatlarni o‘rnatishga xizmat qilmoqda. Gender muammolari ko‘plab jihatlarni qamrab olgan bo‘lib, zamonaviy pedagogik jarayonlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijada pedagogik gender nazariyasini o‘zlashtirish va ta‘limda gender yondashuvlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari kengaytirildi.

Kalit so‘zlar: gender yondashuv, ta‘lim, integratsiya, kasbiy tayyorgarlik, model, pedagogika, gender tengligi, inklyuzivlik, tizimlilik, tamoyillar.

Abstract: In recent years, our republic has been creating a normative framework for preparing students for professional activities based on a gender approach. The reforms being implemented in the study of socio-pedagogical problems are aimed at establishing gender equality and fair relations in the education system and society. Gender issues cover many aspects and serve as a solid foundation for modern pedagogical processes. As a result, the mastery of pedagogical gender theory has expanded the didactic possibilities of using gender approaches in education.

Key words: gender approach, education, integration, professional training, model, pedagogy, gender equality, inclusiveness, systematicity, principles.

Аннотация: В последние годы в нашей республике создается нормативная база для подготовки студентов к профессиональной деятельности на основе гендерного подхода. Реформы, проводимые в изучении социально-педагогических проблем, направлены на установление гендерного равенства и справедливых отношений в системе образования и обществе. Гендерные вопросы охватывают множество аспектов и служат прочной основой для современных педагогических процессов. В результате освоение педагогической гендерной теории расширило дидактические возможности применения гендерных подходов в образовании.

Ключевые слова: гендерный подход, образование, интеграция, профессиональная подготовка, модель, педагогика, гендерное равенство, инклюзивность, системность, принципы.

KIRISH

Yurtimizda so‘nggi yillarda gender tengligi tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni har bir sohada ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o‘zbek tilida so‘zlagan nutqida O‘zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib, gender masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, “Biz uchun gender tengligi siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko‘paydi”, - deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta‘kidlab o‘tdi [2].

Gender yondashuv – gender tengsizligining mavjudligi, uning sabablari va oqibatlarini tushunish hamda ularning yechimini ta‘minlashga qaratilgan yondashuvdir. Gender yondashuv erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga xizmat qilib, ular uchun vakolatlar va majburiyatlarining yanada teng taqsimlanishiga yordam beradi [5]. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda gender yondashuv esa ta‘lim strategiyasini ishlab chiqishda, kasbiy tayyorgarlik mazmuni va texnologiyalarini belgilashda, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda hamda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda gender masalalarini bevosita hisobga olishni o‘z ichiga oladi.



Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy (ta'lim mazmuni) va metodik (o'qitish metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlarini, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni, ta'lim tizimini boshqarishning gender masalalariga ta'sirchanligini oshirishni ko'zda tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda gender o'z-o'zini anglashni rivojlantirishning psixologik asoslari ijtimoiy-madaniy moslashish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. Bo'lajak pedagoglarning gender o'z-o'zini anglash muammosi Yu.Vasilkova, L.Ojigova, S.Butkovskayalar tomonidan tadqiq etilgan. Pedagogik faoliyatning gender tahlili hamda pedagog shaxsiga bag'ishlangan ishlar R.Safarova, B.Ma'murov, N.Muslimov, N.B.Antonova, Z.Ermakov, L.Shneyderlar tomonidan amalga oshirilgan. Shaxsning o'z-o'zini anglashini tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar V.Stolin, S.Pantileyeva, T.Martsinkovskayalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mualliflarning ta'kidlashicha, gender o'z-o'zini anglash pedagogning kasbiy-shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, gender o'z-o'zini anglash bo'lajak pedagogning madaniy saviyasi va dunyoqarashini ham belgilaydi.

Talaba shaxsi tashqi tomondan o'zini tutish va munosabatlarning bir qator normalarida, xulq-atvor va shaxslararo muloqot uslubining ayrim xususiyatlarida, nutqda, tashqi ko'rinishda, bo'sh vaqtni o'tkazish usullarida namoyon bo'ladi. Bu esa tengdoshlar guruhining ahamiyatiga qarab talaba shaxsining shakllanishiga ta'sir qiladi. P.I.Pidkasistiyning ta'kidlashicha, oliy ta'lim talabasi guruhning maqsadlari, madaniy qadriyatlari, qonunlari va xulq-atvor normalarini shaxsiy, taqlid qilish uchun etalon sifatida qabul qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan, yuqori ta'lim darajasi, ijtimoiy faolligi, intellektual va ijtimoiy yetuklikning uyg'un kombinatsiyasi bilan ajralib turadigan yoshlarning maxsus ijtimoiy toifasini N.V.Bordovskaya va A.A.Rean talabalar deb atashgan. Bu davr asosan talabalik vaqtiga to'g'ri keladi, chunki bu ularning yoshiga bog'liq. Olimlarning fikriga ko'ra, bu yosh chegaralari shartli ravishda 16-25 yosh oralig'iga to'g'ri keladi. T.N.Kuxtevichning ta'kidlashicha, talaba yoshlar harakatchanlik va o'zgaruvchanlik tufayli murakkab bilim obyekti hisoblanadi.

V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanov ijtimoiylashuvning muhim ma'nosi uning moslashish, integratsiya, o'z-o'zini rivojlantirish va shaxsning o'zini o'zi anglashi kabi jarayonlarini ochishda ko'rinishini ta'kidlaydilar. O'z-o'zini anglash - bu shaxsning shaxsiy va kasbiy imkoniyatlarini to'liq aniqlashidir.

B. M. Bim-Bad va boshqalar ijtimoiylashuvning mohiyati ma'lum bir jamiyat sharoitida insonning moslashuvi kombinatsiyasidan iboratligini ta'kidlaydilar. Shaxsni rivojlantirish jarayoni, uning yangi ijtimoiy muhitga kirishi va integratsiyalashuvi eng umumiy shaklda mavjud qadriyatlar va normalarning moslashuvi hamda o'zlashtirilishi sifatida ifodalanishi mumkin. Bu faoliyatning tegishli vositalari va shakllarini o'zlashtirish, shaxsni individuallashtirish jarayonidir. Bu maksimal darajada shaxsiylashishga intilish, ya'ni o'ziga xos xususiyatlari va farqlari bilan boshqalarga namoyon bo'lish istagi, o'z shaxsiyatini belgilash vositalari va usullarini izlashdir. Bu shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini gender tengligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda pedagogik faoliyatni insonparvarlashtirish tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va gender tadqiqotlariga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalari tahlil qilindi. Xususan, gender tengligi, gender ijtimoiylashuvi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi va talabalarning gender o'z-o'zini anglashi masalalariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik talqin metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va metodik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvlari sifatida tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va gender yondashuvlar tanlandi. Ushbu yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarning gender tengligi tamoyillariga oid bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari baholandi.

Olingan natijalar ilmiy manbalar, pedagogik nazariyalar va zamonaviy ta'lim amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilinib, gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali pedagogik mexanizmlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda kasbiy tayyorgarlik jarayonida gender yondashuvni qo'llashning ahamiyati bir necha omillar bilan asoslanadi.

Birinchidan, gender tengligi jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida gender tengligi konsepsiyasini singdirib borish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak tarbiyachilar jamiyatdagi gender tengligi prinsiplarini chuqur anglab yetishlari va o'z kasbiy faoliyatlarida ularni aks ettira olishlari lozim ^[7].

Ikkinchidan, maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiyati va ijtimoiy qarashlari shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan bosqichdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola taxminan 2-3 yoshdanoq o'z jinsini anglay boshlaydi va atrofdegilarning jinsga oid farqlarini sezadi. Taniqli sotsiolog I. Kon o'zining "Bola va jamiyat" kitobida shunday yozadi: "Gender ijtimoiylashuvi bolaning hayotida ilk bosqichlardayoq boshlanadi. 2-3 yoshdan boshlab bola o'z jinsini anglaydi, 4-5 yoshga kelib esa jinsga oid ijtimoiy xatti-harakat me'yorlarini o'zlashtira boshlaydi". Yosh davrlari psixologiyasini chuqur o'rgangan olim E. G'oziyevning fikricha esa, "3-5 yosh oraliq'i bolaning jinsiy identifikatsiyasi shakllanadigan davr bo'lib, bu bosqichda bola o'zini qiz yoki o'g'il bola sifatida idrok etadi va shu asosda o'ziga xos ijtimoiy rol xulqini egallay boshlaydi" ^[4].

Gender sxemalari nazariyasi muallifi Sandra Bem bu jarayonni shunday tushuntiradi: "Gender sxematik tafakkur bolalikdan shakllanadi. Bola 4 yoshga kelib, "men qizman" yoki "men o'g'ilman" degan tasavvurga ega bo'lib, o'z jinsiga mos harakatlarni ongli ravishda takrorlay boshlaydi". Demakki, 3-5 yosh oraliq'ida bolalarda gender ijtimoiylashuv jarayoni boshlanadi va ular o'z jinsiga oid jamiyatdagi qarashlar, xatti-harakatlar hamda rollarni anglay boshlaydi. Bu jarayon asosan kattalarning (ota-ona, tarbiyachi, pedagog) xatti-harakatlari, ommaviy axborot vositalari, o'yinchoqlar va muhit orqali shakllanadi.

Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga tenglik madaniyatini singdirish pedagogik ahamiyat kasb etadi. UNESCO tashkiloti manbalarida ta'kidlanganidek, 0–8 yosh davridagi maktabgacha ta'lim bolaning intellektual hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uchun poydevor yaratadi va bu davrda e'tiborli bo'lish gender tengligi hamda ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biridir.


Yuqoridagi omillar kasbiy tayyorlash tizimida gender yondashuvni joriy etishni zarurat darajasiga ko'taradi. Talabalarni o'qitish va tarbiyalashda ularning o'zlari jamiyatdagi gender tengligi madaniyatini chuqur tushunishi, kasbiy faoliyatini olib borishda qiz va o'g'il bolalarga nisbatan teng munosabat va yondashuvni ta'minlashi, bolalarning qobiliyati hamda iqtidorini jinsidan qat'i nazar to'liq namoyon etishiga yordam berishi lozim.

Oliy o'quv yurtida o'qish davri shaxsiy xususiyatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi (qat'iyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati). Oliy ta'lim talabalarida xulq-atvorning ijtimoiy-axloqiy motivlari kuchayadi, axloqiy muammolarga qiziqish ortib boradi. Voqelikka tanqidiy munosabat kuchayadi, o'qituvchilar va kattalarga nisbatan baho hamda talablar mezoni oshadi, aloqa va munosabatlarning tabiati o'zgaradi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatining maqsadi ta'limni intellektual resurslarni saqlash va ko'paytirish, xalqimizning ta'lim, ma'naviy va madaniy an'analarini meros qilib olish uchun mas'ul bo'lgan ijtimoiy institutga aylantirishdir. XXI asr ta'lim amaliyoti ko'plab olimlar va jamoat arboblari tomonidan madaniy paradigma bilan bog'lanadi, unda ta'lim insoniyat madaniyatini o'zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi va har bir insonning rivojlanishini, uning ijodiy salohiyatini ochib berish hamda ko'paytirishni rag'batlantiradigan shart-sharoitlarni yaratish sifatida tushuniladi. Biz ta'limning madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan nisbati uning madaniyatga o'xshashligini belgilaydi, degan fikrga qo'shilamiz. V.I.Maksakovaning so'zlariga ko'ra, ta'limning mazmuni madaniyatdir ^[5].

Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga binoan, oliy ma'lumot, birinchi navbatda, talabaning (o'g'il va qiz) shaxs sifatida o'z taqdirini o'zi belgilashi va o'zini o'zi anglashi uchun xizmat qilishi kerak. Oliy ta'lim zamonaviy bilim darajasini shakllantirishi va nafaqat odamlar o'rtasidagi o'zaro tushunish hamda hamkorlikni rivojlantirishi, balki dunyoqarash yondashuvlarining xilma-xilligini hisobga olishi, talabalarning fikr va e'tiqodlarni erkin tanlash huquqini amalga oshirishga hissa qo'shishi kerak.

Quyida biz talabalarning, ya'ni bo'lajak tarbiyachilarning gender tengligini ta'minlashga oid ko'nikmalarini ko'rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm: Tarbiyachining gender tengligini ta'minlashga oid ko'nikmalari



1. **Gender tengligi bo'yicha xabardorlik.** Talaba gender tengligi va stereotiplar mavzusida nazariy bilimga ega bo'lishi, jamiyatda erkaklar va ayollar roliga doir noto'g'ri qarashlarni tushuna olishi zarur. I.Kon ^[54] ta'kidlaganidek, bola bog'chadayoq tengdoshlari bilan o'zaro muloqotda "o'g'il bolalarga xos" yoki "qiz bolalarga xos" deb qaraladigan xatti-harakat va qiziqishlarni mustaqil ravishda o'zlashtira boshlaydi. Ko'pincha o'g'il bolalar guruhlari kattalarning bevosita aralashuvizisiz shakllanadi va ular mustaqil bo'lishga, kattalardan uzoqlashishga moyil bo'ladi. Shu jihatdan tarbiyachi bolalar jamoasidagi nozik ijtimoiy jarayonlarni kuzata olishi va boshqara olishi zarur.
2. **Xulq-atvorni tahlil qilish va adolatli yondashish.** Tarbiyachi har kuni bolalar bilan muloqotda o'z nutqi va harakatlariga e'tiborli bo'lishi lozim. Masalan, faqat o'g'il bolalarni maqtash yoki faqat qizlarni muloyimlikka undash kabi biryoqlama yondashuvlardan saqlanish talab etiladi. Tarbiyachi teng maqtov va rag'bat berishi, teng talab qo'yish ko'nikmasiga ega bo'lishi, shuningdek, bolalarning bir-biriga bo'lgan munosabatini ham kuzatib, ular orasida jinsga qarab kamsitish alomatlari sezilsa, darhol tuzatish kiritishi kerak. Bunday ko'nikmalar insonparvarlik va kuzatuvchanlik asosida shakllanadi. E'tiborli tarbiyachi qiz bola va o'g'il bolaning xatti-harakatlaridagi tafovutlarni biologik yoki tabiiy narsa deb qabul qilmasdan, balki ijtimoiy ta'sirlar mahsuli ekanini tushunadi. E. G'oziyev ta'rificha, ijtimoiylashuv bu go'dakning oilasi, tengdoshlari va umuman jamiyat ta'sirida asta-sekin jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanish jarayonidir. Demak, bola xulqidagi genderga oid odatlar ham shu ijtimoiylashuv jarayonida orttiriladi. Tarbiyachi esa shu jarayonni to'g'ri yo'naltira olishi lozim.
3. **Pedagogik mahorat va refleksiya.** Tarbiyachi o'z pedagogik amaliyotini muntazam tahlil qilib, o'quv reja va mashg'ulotlarda gender tengligi tamoyillariga zid keluvchi jihatlarni bo'lsa, ularni tuzatib borishi lozim. Gender tengligini bolalarga o'rgatish - bu, avvalo, tarbiyachining kundalik munosabatlari va qadriyatlarini orqali amalga oshadigan jarayon. Tarbiyachi o'zi namuna bo'lish orqaligina bolalarga saboq beradi. Ya'ni, tarbiyachi o'zining har bir so'zi va xatti-harakatida adolat va tenglikni namoyon etsa, bolalar buni ilg'ab oladi. Shu jihatdan tarbiyachi quyidagi yo'llar bilan gender tengligiga oid tarbiyani singdirishi mumkin.

Talabalarni tayyorlash jarayoni yakunida ular nafaqat umumiy pedagogik kompetensiyalarga, balki gender kompetensiyaga ham ega bo'lishi kerak. Shu boisdan o'quv rejalari va dasturlarini tuzishda dastlabki maqsadlardan biri sifatida "gender tengligi nuqtayi nazaridan tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lish" kabi natijani kiritish maqsadga muvofiq. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasida qabul qilingan maktabgacha ta'lim bo'yicha federal davlat standarti talablariga ko'ra, pedagoglar bolalarni tarbiyalashda jins va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya berish uchun zarur kompetensiyalarga ega bo'lishlari shart. Ushbu standartga muvofiq maktabgacha ta'lim dasturlari bolalarning yoshiga mos individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, pedagoglar bolalarning jismoniy, intellektual, axloqiy, estetik va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim. Bu orqali maktabgacha ta'limda sifatli va inklyuziv yondashuvni amalga oshirish maqsad qilingan. Bizning milliy standartlarimizga ham maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun gender tengligini ta'minlashga oid kompetensiyalarni kiritish muhimdir. Bu yurtimizda qabul qilingan huquqiy hujjatlar talablariga ham to'liq mos keladi.


Talabalarni gender masalalariga oid bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish ularning kelgusida malakali pedagog bo'lib yetishishlari uchun muhimdir. Chunki aynan tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarning ilk dunyoqarashi va ijtimoiy tushunchalarini shakllantiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, erta bolalik davridan bolalar gender stereotiplarini o'zlashtirishni boshlaydi va bu stereotiplar keyinchalik ularning qiziqishlari hamda imkoniyatlariga, kasb tanlashlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tarbiyachilar bolalarga jinsidan qat'i nazar, har biriga individual yondashib, ulardagi iqtidor va salohiyatni ro'yobga chiqarishga ko'maklashishlari lozim.

UNICEF hisobotlarida qayd etilishicha, maktabgacha ta'limda gender tengligini ta'minlash uchun har bir tarbiyachi gender-transformativ pedagogika tamoyillarini puxta egallagan bo'lishi shart, ya'ni o'z faoliyatida qizlar va o'g'il bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, zararli stereotiplarni bartaraf etadigan yondashuvlarni qo'llay olishi lozim. Bugungi kun pedagogikasi talabalarning shaxsiy qarashlari, qadriyatlarini va munosabatlariga ham tanqidiy nazar bilan qarashni, pedagogik faoliyatida ongli ravishda gender neytral, tenglikka asoslangan yondashuvni tanlashini talab etadi. Bu esa tarbiyachining har bir xatti-harakati, tanlagan didaktik vositasi, mashg'ulotlari, nutqi va bolalarga bo'lgan munosabatida aks etadi.

Talabalar uchun gender yondashuv asosidagi tayyorgarlikning amaliy jihatlari, avvalo, ularning bilim va tushunchalarini shakllantirishdan boshlanadi. Shu bois pedagogika oliyog'larida "Pedagogik psixologiya", "Maktabgacha pedagogika" kabi fanlar doirasida genderga oid mavzularning kiritilishi muhim hisoblanadi. Jumladan, bolalarning jinsiy identifikatsiya jarayoni, qiz va o'g'il bolalarning yoshga doir psixologik va fiziologik xususiyatlari, o'yin faoliyati va muloqotidagi farqlar hamda ularning sabablarini tahlil qilish, tarbiyachi uchun gender munosabat me'yorlari kabi masalalar o'quv dasturlarida yoritilishi lozim.

UNESCO tomonidan chop etilgan “Pedagoglar ta’limi siyosati va amaliyotida gender tenglik qo’llanmasi”da qayd etilishicha, bo’lajak pedagoglarga gender masalalarini barcha o’quv jarayonlari va boshqaruv sohalariga integratsiya qilish bo’yicha maxsus modul va darslar tizimini joriy etish zarur. Ushbu qo’llanmada gender bilimlarini singdirish ta’lim siyosati, boshqaruvi, muassasa muhiti, o’quv rejaları, darslik va materiallar, pedagogik usullar hamda ilmiy tadqiqot faoliyati kabi barcha jabhalar bo’ylab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Gender yondashuvning metodologik tamoyillari tenglik, integrallik, inklyuzivlik va tizimlilik bo’lib, ular ta’lim jarayonida barcha talabalarga teng imkoniyatlar yaratish hamda jinsiga qarab farqlanishlarni bartaraf etish maqsadida qo’llaniladi (2-rasm).



2-rasm: Gender yondashuv tamoyillari

Tizimlilik tamoyili gender yondashuvni qo’llash metodologiyasining uzluksizligini, bosqichma-bosqich izchilligini ta’minlashga qaratilgan. Ta’lim tizimida o’tkaziladigan har qanday innovatsiya singari gender yondashuv ham uzluksiz va davomli sa’y-harakatlarni talab qiladi. Bu tamoyil mohiyatan gender tengligi va adolatga erishish yo’lidagi choralar bir martalik tadbirlar bo’lib qolmasligi, balki ta’limning barcha bosqichlarida izchil davom ettirilishi lozimligini anglatadi.

Gender yondashuvning eng asosiy ustuni - tenglik tamoyilidir. Bu tamoyil ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, xususan, qiz va o’g’il bolalar teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo’lishini ta’minlashga qaratilgan. Mazkur sohada ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan R. Subrahmanian ta’kidlaganidek, “Maktabda qizlar va o’g’il bolalar soni teng bo’lsa-da, agar o’quv jarayonida jinsga xos noxolis munosabatlar saqlanib qolsa yoki o’quv natijalari orasida tafovut bo’lsa, bunday tizimni gender tengligi deb bo’lmaydi”. Shu bois gender tengligi tushunchasi ta’limda uch xil “huquq”ni o’z ichiga oladi:

Ta’lim olish huquqi - har bir bola, o’g’il yoki qiz bo’lishidan qat’i nazar, ta’lim olishda bir xil imkoniyatga ega bo’lishini anglatadi. Bu huquq ta’limning asosiy nuqtasini ta’minlaydi, ya’ni ta’lim muassasasiga, mashg’ulotlarga, zarur resurslarga teng darajada ega bo’lishdir.

Inklyuzivlik tamoyili gender yondashuv metodologiyasida hech bir talabani jinsiy mansubligi tufayli ta’limdan chetda qoldirmaslik, ularning barchasini ta’lim jarayoniga to’liq jalb etishga qaratilgan. “Inklyuziv ta’lim” atamasi ko’pincha nogironligi bo’lgan bolalar yoki ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj guruhlarni qamrab olish ma’nosida qo’llansa-da, gender nuqtayi nazaridan ham inklyuzivlik juda muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyilga ko’ra, guruhdagi har bir bola - u qiz yoki o’g’il, ijtimoiy kelib chiqishi, qobiliyati va qiziqishlaridan qat’i nazar - o’zini teng huquqli va to’laqonli ishtirokchi sifatida his etishi lozim. Bunda ta’lim jarayoni shunday tashkil etiladiki, unda “o’g’il bola” yoki “qiz bola” degan ajratmalar yo’q, barcha faoliyat turlarida bolalar aralash holda hamkorlikda ishlaydi, rollarni bo’lishib oladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida gender yondashuvga asoslangan kasbiy tayyorgarlik texnologiyasi talabalarni zamonaviy mutaxassisga aylantirishda ta’limiy innovatsiya sifatida qaralishi lozimligi aniqlandi. Gender yondashuv asosida ishlab chiqilgan kasbiy tayyorgarlik texnologiyasi o’z ichiga shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, inklyuziv yondashuv, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar hamda demokratik qadriyatlarni qamrab oladi. Bu texnologiya orqali tarbiyachilar har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlariga mos holda faoliyat olib borishga, diskriminat-



sion yondashuvlarga barham berishga, ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini ustuvor qo'yishga o'rgatiladi. Shu orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy sezgirlik, gender masalalariga nisbatan ongli munosabat, muomala madaniyati va empatiya kabi yuksak fazilatlar shakllanadi. Bu esa ularning pedagogik faoliyatda samarali ishlashiga, jamiyatda gender tengligi madaniyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. 2020- yil 23- sentabr. www.lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi qarori:"2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Davlat va huquq asoslari" fanidan umumiy o'rta ta'lim uchun o'quv dasturi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi XTV, 2021. <https://uzedu.uz/uz/docs/programs>
4. Abduqodirova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim faoliyatini tashkil etishda gender yondashuvining ahamiyati // Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari jurnali. - 2021. - T.1, №4. - B. 45-50.; <https://www.unesco.org/en>
5. Qosimova N. Gender stereotiplari va ta'lim jarayoni: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Ma'naviyat, 2021. - 224 b.; UNESCO. Gender equality in education: A roadmap for policy and practice. - Paris: UNESCO Publishing, 2019. -- 224 b.
6. Rotkevich N. E. Gendernoye obrazovaniye v Rossii: sovremennyye vyzovy i perspektivy razvitiya // Gendernaya pedagogika: teoriya i praktika. - Kazan': Izd-vo KGU, 2016. - S. 45-50.
7. Sayidahmedova N. Ayollar ta'limi va ijtimoiy faolligini oshirish masalalari // O'zbekiston fanlari akademiyasi axborotnomasi. - 1994. - №2. - B. 45-49.; Nishonova M. O'g'il bolalar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar // Pedagogik izlanishlar jurnali. - 1996. - №1. - B. 33-38.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.